

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI: BUYUK MEROS NAMOYISHI VA KONSEPSIYA HUJJATLARI

U.Z.Axundjanova

U.I.Tadjimuxamedova

O‘zFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi

“Fondlar va arxiv” bo‘limi xodimlari

Telefon: 93 500-76-26; gmail: umida.zaxidovna@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21735000>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondlarida saqlanayotgan noyob arxiv materiallari, maktublar va davlat hujjatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda muzeyning tashkil topish tarixi, “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasi doirasida jamlangan noyob qo‘lyozmalar va Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan 05 - fevral 2026 yildagi PQ – 46 – son Prezident Maxsus Qarori asosida muzeyning modernizatsiya qilinishi, fondlarni to‘liq raqamlashtirish, restavratsiya jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar tarixi davlat muzeyi, arxiv materiallari, muzeyshunoslik, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Karl VI, Milliy arxiv hujjatlari, raqamlashtirish, restavratsiya.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va jahon tarixining eng yuksak, madaniy va siyosiy Renessans bosqichlaridan biridir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy tarixni haqqoniy tiklash, ayniqsa jahon taraqqiyotida tarixida katta iz qoldirgan Sohibqiron Amir Temur merosini o‘rganish va asrab-avaylash davlat darajasiga ko‘tarildi. Shu maqsada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-martdagi 99-sonli “Temuriylar tarixi Davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi¹. Ushbu hujjat bilan Toshkent shahrining markazida muhtasham muzey binosi barpo etildi va u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi bosh tadqiqot markazlaridan biriga aylantirildi. Keyinchalik, Hukumatning 1997-yil 24-yanvardagi 50-sonli “Temuriylar tarixi Davlat muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori² muzeyning ilmiy va ma‘muriy maqomini, shtatlar jadvalini hamda respublika fondlaridan temuriylar davriga oid noyob eksponatlarni ushbu markazga muddatsiz o‘tkazish tartibini qonuniy mustahkamladi. Bugungi kunda Temuriylar tarixi davlat muzeyi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Davlat noyob ilmiy ob‘ektlari ro‘yxati”ga kiritilgan. Muzey fondlarida 7582 ta muzey ashyosi saqlanadi. Shundan qariyb 200 tasini qo‘lyozmalar, toshbosma kitoblar, tarixiy maktublar hamda rasmiy hujjatlardan iborat noyob arxiv materiallari tashkil etadi (11-20-rasmlarda tarixiy maktublardan namunalar keltirilgan).

O‘zbekistonda Davlat muzeylari fondini aholida saqlanayotgan noyob madaniy boyliklar, tarixiy ashyolar va qo‘lyozmalar hisobiga tizimli boyitish maqsadida ko‘plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 maydagi PQ-261-sonli qaroriga³ muvofiq respublika miqyosida “Milliy merosga mening hissam!” umumxalq aksiyasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mazkur loyiha doirasida Temuriylar tarixi davlat muzeyining Badiiy ekspertlar kengashi tomonidan yuksak tarixiy-badiiy qiymatga ega deb topilgan va aholidan xarid

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Темурийлар тарихи Давлат музейини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, 1996 йил 14 март 99-сон.

² ЎЗР ВМ нинг 1997 йил 24 январдаги 50-сонли “Темурийлар тарихи Давлат музейи фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори.

³ О‘зР Президентининг 2022-йил 27-майдаги PQ-261-сонли “Музеяларда хизматлар соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари то‘ғ‘risida” Qarori.

qilingan yoki xolis topshirilgan qo'lyozmalar Muzeyning asosiy kirim kitobiga (KK) raqamlari tizimi asosida rasmiy ro'yxatga olinadi. Keyingi ikki yarim yil davomida muzey fondlari qariyb 100 ta yangi muzey ashyosi bilan boyitildi. Ular orasida quyidagi qo'lyozmalar, toshbosma kitoblar va tarixiy hujjatlar alohida ilmiy ahamiyatga ega:

1. Hijriy 1335 (milodiy 1916)-yilda chop etilgan “Devoni Fuzuliy. Layli va Majnun” nomli fors-turkiy tilda yozilgan toshbosma asari (KK-211) Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi A.Sharipova tomonidan topshirildi;
2. XX asr boshlariga mansub Qur'oni Karim toshbosmasi(KK-213), Toshkent shahri fuqarosii Shamsutdinova Yulduz tomonidan sovg'a qilindi;
3. “داستان جنگ برزو” (“Barzu janggi haqida doston”) (KK-215) nomli fors adabiyotining nodir namunalaridan biri bo'lgan toshbosma asar bo'limi metodisti K.Nosirov tomonidan sovg'a qilindi;
4. “Merojnoma” qo'lyozmasining to'la faksimil nusxasi (KK 221-19) kolleksioner F.F.Abduxalikov tomonidan sovg'a qilindi.

Muzey ekspozitsiyasi va fondlaridan joy olgan Amir Temur va uning avlodlariga tegishli halqaro maktublar nafaqat tarixiy fakt, balki halqaro madaniy hamkorlikning mahsulidir. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalari (KP-19), Usmonli Sulton Boyazid, Misr va Xitoy hukmdorlarining Amir Temur va temuriy shaxzodalar bilan bo'lgan yozishmalarining (YF 31/1-57) xorij muzey va arxivlarida (Fransiya Milliy arxivi – Archives Nationales, Eron arxiv namunalari) saqlanayotgan asl nusxalari asosida yuqori aniqlikda olingan rasmiy faksimilelari muzey fondiga olib kelingan (11-20-rasmlar). Muzeyda ushbu noyob fond va arxiv materiallari maxsus iqlim nazorati ostida (havo harorati doimiy +18°C dan — +22°C gacha, nisbiy namlik esa – 50-55% darajasida) saqlanadi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekskursovodlarining kuzatuvlariga ko'ra, tashrif buyuruvchilar Amir Temurning diplomatik yozishmalari namoyish etilgan ekspozitsiyada eng ko'p vaqt to'xtaladilar. Ular, asosan, maktublarning aslligi, kelib chiqishi va saqlanish tarixi bilan qiziqadilar. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, 2025-yilgi statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, muzeyga tashrif buyuruvchilar soni 200 000 (ikki yuz mingdan) dan oshiq bo'lgan.

Muzey nafaqat tarixiy ashyolarni namoyish etadigan maskan, balki davlat ahamiyatiga molik rasmiy va ilmiy hujjatlar shakllanadigan idoradir. Temuriylar tarixi davlat muzeyining yaratilish konsepsiyasi, ilmiy loyihalari, ilmiy kengash bayonnomalari muzey qoshidagi idoraviy arxiv bo'limida saqlanadi. Muzeyning konseptual hujjatlarining saqlanishi va ularning Respublika arxivi bilan aloqasi O'zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi arxivi bilan hamkorlikda muzeyning Ekspert-tekshiruv komissiyasi (ETK) hujjatlarning tarixiy qimmatini aniqlaydi.

Amir Temur tavalludining 690 yillik tantanalari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi maxsus Qarori⁴ qabul qilindi. Mazkur tarixiy hujjat asosida muzeyda xalqaro standartlarga mos keluvchi, unikal qurilish-modernizatsiya va restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Muzeyning ramzi hisoblangan moviy gumbaz, nafis milliy ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi namunalari asl holda saqlangan holda restavratsiya qilindi. An'anaviy vitrinalar o'rniga sun'iy intellekt, 3D-gologrammalar va interaktiv raqamli xaritalar o'rnatildi. Endilikda tashrif buyuruvchilar Shohruh Mirzoning Xitoy hukmdori Ming sulolasi bilan almashinilgan ikkinchi maktubi yoki Shohruh Mirzo saltanatining rasmiy xutbasi kabi noyob

⁴ O'zR Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PQ-46-sonli “Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohbiqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida” gi Qarori.

hujjatlar zamiridagi Buyuk Ipak yo'li savdo karvonlari harakatini jonli multimedia formatlari orqali kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Joriy yilning 9-aprel kuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Sohibqiron Amir Temur tavallud topganining 690 yilligi munosabati bilan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurdi va rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi⁵.

Hazirda Temuriylar tarixi davlat muzeyidagari tadqiqotchilar va tashrifchilarning tez-tez varaqlashi natijasida shikastlanish xavfi bo'lgan noyob qo'lyozmalar va toshbosma kitoblarni yuqori aniqlikdagi maxsus skanerlar yordamida raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirilgan qo'lyozmalar muzeyning yangi tashkil etilishi nazarda tutilgan elektron platformasi orqali tadqiqotchilarning masofadan foydalanishi uchun imkoniyatlar taqdim etiladi (1-2-rasmlar). Shu bilan birga Temuriylar tarixi davlat muzeyi xodimlari qadimiy qo'lyozmalar va vaqfnoma hujjatlarining asl varaqlarini, qadimiy tangalarni, arxeologik qazishmalar natijasida topilgan sopol va metall buyumlarini shikastlanishlardan tozalash hamda ta'mirlash ishlarida faol ishtirok etib kelmoqdalar (3-4-rasmlar). Muzeyning restavrator-olimlari tomonidan soha mutaxassislari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun maxsus o'quv seminarlari muntazam tashkil etib borilmoqda (5-6-rasmlar). Xususan, 2026-yil 21-may kuni “Fondlar va arxiv” bo'limi mutaxassisi A. Alimov tomonidan “Muzeylarda innovatsiya va restavratsiya ishlarini olib borish” mavzusida ilmiy ma'ruza taqdim etildi. Ma'ruza davomida sohadagi zamonaviy innovatsion yondashuvlar va restavratsiya jarayonlarining o'ziga xos jihatlari atroflicha yoritib berildi (5-rasm). Fond xodimlarining ushbu yo'nalishdagi faolligi, qo'lyozmalarni tiklash jarayoni va restavratsiya ustaxonalarining ko'rinishi bilan quyidagi vizual namunalar orqali tanishish mumkin (1, 3-4, 7-rasmlar).


2026-yil 23–24-may kunlari Xorazm viloyati, Xiva shahrida “Zamonaviy muzeylar va raqamli fondlar: innovatsion boshqaruv strategiyalari” mavzusida respublika seminar-treningi bo'lib o'tdi. Tadbirda respublikaning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan davlat muzeylari va muzey-qo'riqxonalarining 80 nafardan ortiq rahbar va mutaxassislari, ilmiy xodimlar, fond saqlovchilari hamda soha ekspertlari qatnashdi. Jumladan, seminar-treningda Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori Xurshid Fayziyev hamda “Fond va arxivlar” bo'limi mutaxassisi Arslon Alimov ham ishtirok etishdi. Mazkur seminar davomida muzey faoliyatida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, raqamli fondlarni yuritish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda soha mutaxassislari o'rtasida tajriba almashish masalalari muhokama qilindi (8-10-rasmlar).

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan arxiv materiallari xalqimizning bebaho milliy boyligidir. Ularnin o'rganish va saqlashda muzeyning “Fondlar va arxiv” bo'limi xodimlarining o'z islariga mas'uliyatliklari va jonkuyarliklari ahamiyat kasb etib kelmoqda. Fond materiallari Amir Temur va uning avlodlari olib borgan ko'p tarmoqli tashqi siyosat, Buyuk Ipak yo'lidagi iqtisodiy integratsiya, Markaziy Osiyo davlatchiligining jahon tamaddunida qanchalik yuksak o'rin tutganini hujjatli dalillar asosida ko'rsatadi. Muzeyda noyob arxiv materiallarini zamonaviy talablar asosida saqlash, raqamlashtirish va ilmiy tadqiq etish ishlarining yo'lga qo'yilgani kelajak avlodlarga ushbu bebaho merosni butunligicha yetkazish imkonini yaratmoqda. Tashrif buyuruvchilar sonining yildan-yilga ortib borayotgani esa jamiyatda milliy tarixga, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar merosiga bo'lgan qiziqish yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, Temuriylar tarixi davlat muzeyi nafaqat muzey muassasasi, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va O'zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga xizmat qiladigan muhim ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kelgusida muzey fondlarini yanada boyitish, arxiv materiallarini to'liq raqamlashtirish

⁵ <https://president.uz/oz/lists/view/9084>

va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish ushbu muassasaning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Sohibqironning 690 yillik yubileyi munosabati bilan amalga oshirilgan unikal raqamlashtirish va modernizatsiya loyihalari ushbu bebaho merosni dunyoga taratishga xizmat qilmoqda.


Ilovalar:



1-rasm. Qo‘lyozmalar bilan ishlash jarayoni
(fondlar saqllovchisi U.Tadjimuxamedova)



2-rasm. Fond kutubxonasini xatlov jarayoni
(U.Tadjimuxamedova va M.Raximova)



3-rasm. Tangalar ustida ishlash jarayoni
(U.Axundjanova va M.Raximova)



4-rasm. Tangalar ustida ishlash jarayoni
(Phd. D.Normurodov)



5-rasm. A. Alimov. “Muzeylarda innovatsiya
va restavratsiya ishlarini olib borish”
mavzusida ilmiy ma’ruza jarayoni



6-rasm. “Muzeylarda innovatsiya va
restavratsiya ishlarini olib borish”
mavzusida ilmiy ma’ruza jarayoni (Phd.
D.Normurodov)



7-rasm. A. Alimov. “Muzeylarda innovatsiya va restavratsiya ishlarini olib borish” mavzusida ilmiy ma’ruza jarayoni




8-rasm. Xiva shahrida “Zamonaviy muzeylar va raqamli fondlar: innovatsion boshqaruv strategiyalari” mavzusida respublika seminar-treningidan lavhalar.



9-rasm. Xiva shahrida “Zamonaviy muzeylar va raqamli fondlar: innovatsion boshqaruv strategiyalari” mavzusida respublika seminar-treningidan lavhalar. (ma’ruzachi - A. Alimov).




10-rasm. Xiva shahrida “Zamonaviy muzeylar va raqamli fondlar: innovatsion boshqaruv strategiyalari” mavzusida respublika seminar-treningidan lavhalar.



Амир Темурнинг Франция қироли Шарл VI юборган мактуби. 1402 йил.
Письмо Амира Темура королю Франции Шарлю VI. 1402 год.
Letter of Amir Temur to the king of France Charles VI. 1402.


11-rasm. Amir Temurning Fransiya qiroli
Karl VI yozgan xati.




12-rasm. Fransiya qiroli Karl VI ning Amir Temurga
xati.




13-rasm. Мактуб-
ксерокопия. Амир
Темурнинг Yeldirim
Boyazidga yozgan 1-
maktubi va uning
javobi.



14-rasm Amir
Temurning Usmonli
Sulton Yeldirim
Boyazidga yozgan 2-
maktubi.



15-rasm. Yeldirim
Boyazidning Amir
Temurning 2-
maktubiga yozgan
javobi.




16-rasm. Amir
Temurning Usmonli
Sultonga yozgan
maktubi.




17-rasm. Kserokopiya.
Sultonning Amir
Temurga yozgan
javobi.



18-rasm. Amir
Temurning Misr
xokimiga yozgan
maktubi.



19-rasm. Amir
Temurning Rim
xokimiga yozgan
maktubi.



20-rasm. Kserokopiya.
Amir Temurning
G'ilon Xokimi Said Ali
Kiyga yozgan
maktubi.